

BAHONING TABIATI VA KATEGORIAL BELGILARI

N.J.Sulaymanova¹*Annotatsiya:*

Mazkur maqolada bahoning tabiati va uning kategorial belgilari, baho kategoriyasining maqomi o'ziga xosligi, u inson tafakkurining obyektiv voqelik bilan munosabati asosida shartlanishi, narsa-hodisalarni atovchi birliklar denotati nafaqat ontologik jihatdan, balki ma'lum xususiyatlariga nisbatan baholanishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: denotat, kategorial belgilar, obyektiv voqelik, ontologik, baholash subyekti, antropotsentrizm, kommunikativ, baho pragmatikasi, emotivlik va reprezentativlik.

doi: <https://doi.org/10.2024/6mqfffi1>

Baho kategoriyasining maqomi o'ziga xos va u inson tafakkurining obyektiv voqelik bilan munosabati asosida shartlanadi. Narsa-hodisalarni atovchi birliklar denotati nafaqat ontologik jihatdan, balki ma'lum xususiyatlariga nisbatan baholanadi. M.V.Nikitin qayd etishicha, denotatlar tavsifida baho ontologik, epistemik, pragmatik, emotivlik va reprezentativlik ko'rinishlariga ega bo'ladi [Никитин 2004, 62]. Insonning olamni bilish faoliyati baholash harakati kechishini taqozo etadi. Olam parchasi haqida to'plangan bilimning qiymati uning shaxs uchun qanchalik ahamiyatli, qadrlil va kerakli ekanligi bilan belgilanadi. Ayni paytda, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga aloqador bo'lgan qiymat va qadriyatlar o'zgaruvchanlikka moyil bo'lib, jamiyat taraqqiyotining bir bosqichidan ikkinchisi tomon o'sib, rivojlanib boradi. Qiymat baholash subyekti tomonidan belgilanadi.

Baho hodisasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash izmida bo'lgan tadqiqotchilar uning tarkibi, ko'lami va mundarijasini hosil qiluvchi kategorial belgilarini ajratadilar.

Baho harakatining tabiatini shakllantiruvchi asosiy kategorial belgi, albatta, uning antropotsentrikligidir. Baho harakati faqat va faqat inson tomonidan bajarilishi qadimdan ta'kidlanib kelinayotgan harakatdir. "Avesto" kitobida targ'ib qilingan ta'limotga ko'ra, inson faoliyati uchta yirik tayanchga ega: fikrlar sofligi ("ezgu fikr"), so'zdagi sobitlik ("ezgu so'z") hamda faoliyatning insonparvarligi ("ezgu amal") [Choriev 2007, 34]. Xuddi shu xususiyatlarning shakllanishi insonni mavjudotlar olamining markaziga qo'yadi, uning ishtirokisiz hech bir ijtimoiy amal bajarilmaydi. Faylasuflar qayd etganidek, "inson istaklari va intilishining obyekt qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har qanday holatda ham uning yaxshi yoki yomon deb qabul qilinishi muhimdir" [Апутьюнова 1998, 17]. Baho olamni bilishga intilayotgan shaxsning ushbu olam bilan har bir "uchrashuvi"da sodir bo'ladi. Baholash faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, baho birliklaridan foydalanayotgan so'zlovchi ma'lum bir axborotni ifodalash bilan chegaralanib qolmasdan, balki nutq tizimida

¹ N.J.Sulaymanova, DSc., dots., SamDCHTI, Ingliz tili fakulteti

mavjud bo'lgan lisoniy birlikka nisbatan ham munosabat bildiradi. N.D.Arutyunovanning ta'bir qilishicha, "baho insonni olam nazdidagi mo'ljal sifatida tasvirlaydi. Olam inson uchun mavjud, inson olam uchun emas" [Арутюнова 1999, 58]. Aynan shunday fikrni peterburglik semasiolog M.V.Nikitin ham ta'kidlaydi: "baholash qobiliyati inson organizmiga singdirilgan va ushbu qobiliyat uning olamdagi o'rnini belgilaydi" [Никитин 2004, 69].

Baholashning antropotsentrik xususiyati uning asosiy vazifalari ko'lamini belgilaydi. Masalan, bahoning voqelikni bilish bilan bog'liq gnoseologik vazifasi subyekt va obyekt munosabatining olamning me'yoriy manzarasi sari yo'nalish olishida ko'rinadi. Kommunikativ vazifa yuzaga chiqishida esa nutqiy baho tinglovchi tomonidan predmet haqidagi axborot ko'rinishida qabul qilinadi. Nihoyat, ekspressiv vazifa faollashuvida so'zlovchi, predmet haqida fikr bildirayotib, tinglovchi ta'sir o'tkazishga harakat qiladi.

Bahoning yana bir muhim belgisi uning kognitiv tabiatga ega ekanligidadir. Baho olamni tasniflash bilan birgalikda, voqelikni bilish bilan ham bog'liq [Вольф 1986, 67; Чекулай 2006, 18]. Baholash harakati jarayonida fikr, hukm shakllanadi, inson ongida bilim tuzilmalari hosil bo'ladi va shu asnoda nutqiy faoliyat amalga oshirilib, muloqot sharoitida yuzaga kelgan nutqiy tuzilmalar ma'nosi anglashiniladi. M.V.Nikitin bahoning kognitiv tabiatini tavsiflab, quyidagi fikrni bildiradi: "baho ong faoliyati kechishining muhim qismidir va ushbu faoliyatning alohida bosqichini tashkil qiladi" [Никитин 2004, 66].

Pragmatika ham bahoning asosiy kategorial belgilaridan biridir. Zotan, baho o'z ehtiyojini qondirish uchun boshqalar nuqtayi nazari, fikriga ta'sir ko'rsatish uchun beriladi [Alexander 1988, 70]. Baho pragmatikasi subyektning maqsadi doirasida namoyon bo'ladi va obyekt haqida to'liq bilimga ega bo'lish uchun axborotga qaytadan mantiqan ishlov berishni talab qiladi. Bahoning ushbu jihati bevosita uning antropotsentrik tabiati bilan bog'liq. Nutqiy aktlar nazariyasining asoschisi J.Ostinning nazdida baho tuzilmalari shaxsning muloqot muhitidagi nutqiy faoliyati mahsulidir [Austin 1961, 26]. Ushbu muhitda nutqiy tuzilmaning mazmuni so'zlovchining maqsadi, muloqot ishtirokchilarining olam haqidagi bilim darajasiga nisbatan aniqlanadi.

Ba'zi tadqiqotchilar baho kategoriyasi faollashuvini intuitsiya, ya'ni inson ichki hissiyoti, sezgisi bilan bog'laydilar. Intuitsiya asosida obyektiv va subyektiv baho beriladi va ulardan birinchisida obyektning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga asoslanilsa, ikkinchisida shaxsning atrof-muhitga nisbatan pragmatik nuqtayi nazari hal qiluvchi rolni o'taydi. Intuitsiya baho kategoriyasining "psixologik ildizi" hisoblanadi [Арутюнова 1987, 15]. Intuitsiya axborotni qayta ishlash usuli va bahoni shakllantirish vositasidir. Shuning bilan birgalikda, intuitiv yondashuvning kamchiligi uning vositasida hodisalar haqida ichki tuyg'u asosida, hech qanday qayta tekshiruvsiz xulosa chiqarilishida namoyon bo'ladi. Shu sabab, uning tatbiqida erishiladigan bilim har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Baho va intuitsiya hodisalari munosabatini o'rgangan M.V.Nikitin baho harakatini keng miqyosda tasvirlash taklifini kiritadi. Bahoning berilishi-intuitsiya asosida kechadigan tafakkur faoliyati bo'lib, u narsa va hodisalarning u yoki bu xususiyatlarga egaligini belgilaydi [Никитин 2004, 73].

Bahoning navbatdagi kategorial belgisi uning subyektivligi bilan bog'liq. Baho olamni subyekt tomonidan idrok etilishi jarayonida paydo bo'ladi. Ushbu jarayonda borliq obyektlari va hodisalari shaxsga ta'sir ko'rsatadi va mazkur ta'sir turli shaxslarga nisbatan turlicha me'yorda bo'lishi mumkin. Baho tuzilmalarining subyektiv xarakteri uzluksizdir, aks holda ular aksiologik vazifa ijrosidan xoli bo'ladilar. M.M.Baxtin qayd etib o'tganidek, "alohida so'zlar hech kimga tegishli emas, betaraf, ular o'z-o'zidan hech narsani baholamaydi, lekin zarur bo'lganida so'zlovchining turli xil, ba'zan, hatto ziddiyatli baholarini ifoda eta oladi" [Бахтин 1986, 264].

Ehtimollik modusi barqaror emas, va baholash ehtiyoji shunga nisbatan qondiriladi. Olamning ideallashtirilgan manzarasi barqaror yoki aniq ko'rinishga ega emasligi sababli, baholovchi hukm uni shakllantirishga ishtirok etishdan tashqari, idrok qilishga ham zamin yaratadi [Апутьюнова 1988, 180]. Olamni idrok etish va yaxshi / yomonni farqlash orqali inson voqelikning tub mohiyatiga yetib boradi.

Bertran Russel "yaxshi - yomon" qarama-qarshiligi nisbiy harakterga egaligini eslatgan edi. Narsa-hodisalarning yaxshi yoki yomonligini belgilash shaxsning rejasi va hissiyoti va tanloviga bog'liq. Baho tushunchasini shaxsi noma'lum hukm yoki gapdan kelib chiqib tavsiflash qiyin masala. Lekin ushbu tushuncha, xuddi zamon tushunchasidek, inson ongida shakl topadigan tushunchalar qatoridan asosiy o'rinlardan birini egallaydi [Russel 1953, 32].

Obyektivlik bahoning muhim kategorial belgilaridan biridir. Baho tuzilmalarida narsa-hodisalar o'rtasidagi munosabat aks topadi. Arastu ushbu munosabatni quyidagicha tasvirlagan edi: "agarda shaxs biron-bir munosabatlardan xabardor bo'lsa, u ushbu munosabat nimaga nisbatan ekanligini ham biladi. Ma'lum bir hodisa, holat nimaga nisbat berilayotgani noma'lum bo'lganida esa uning holati nima bilan bog'liqligini bilib bo'lmaydi" [Аристотель 1998, 32].

Baho ma'nosi narsa-hodisasining asl xususiyati bilan bog'liq holda yuzaga keladi va shu xususiyat baholanishiga turtki beradi [Вольф 2002, 18]. Baho motivi, odatda, obyektiv xususiyatga egadir. Baho harakatini uyg'otuvchilar qatoriga obyektning o'ziga xos belgilari, turli dalillar, ushbu obyektning idrok etish qonuniyatlari va, nihoyat, shaxsning munosabati kiradi. Qadriyatlar esa ko'pincha jamoaviy xarakterga ega bo'ladi.

Faoliyatni ham baho tabiatini tavsiflovchi kategorial belgi sifatida qarash lozim. To'g'ri, faylasuflar subyekt tomonidan voqelikni baholi idrok etilishi olamni bilish immanent yoki o'z qobig'ida kechadigan harakat deb qaraydilar. Ammo zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslikda qadriyatlar tizimining kognitiv mohiyati e'tirof etiladi. Qadriyat voqelikni "o'zlashtirish"ning o'ziga xos kategoriyasi sifatida talqin qilinadi [Маджидова 2019, 158; Радбиля 2017, 99]. Baholash qobiliyati pog'onali tuzilishga ega bo'lib, uning tarkibida me'yoriy, ijtimoiy-madaniy, shaxsiy-kasbiy, vaziyatli qatlamlar mavjud [Гранин 1987, 69].

Ushbu qatlamlarning harakati insonning maqsadli faoliyati bilan bog'liqligini inobatga oladigan bo'lsak, faoliyatlilikni bahoning kategorial belgilari qatoriga kiritish lozim bo'ladi.

Shuningdek, me'yoriylik ham bahoning tabiatida mavjud bo'lgan kategorial belgidir. Insonning atrof-muhitdagi narsa hodislarga munosabati ma'lum bir me'yoriy mezon asosida shakllanadi. Odamlar u yoki bu jamoada tarixan shakllangan me'yorlarga tayangan holda baholash harakatini bajaradilar. Hayotiy tajriba

jarayonida o'zlashtirilgan qolip, mezonlar kechayotgan hodisa, voqelarni baholash uchun xizmat qiladi.

Baho falsafa va tilshunoslik nuqtayi nazaridan, har qanday holatda ham me'yor tushunchasi bilan bog'liqdir. Me'yor, qadriyatlar tizimiga asoslangan holda olam lisoniy manzarasi shakllanishida ishtirok etayotib, narsa-hodisalarni tavsiflaydi va tasniflaydi. Bunda "yaxshi-yomon", "chiroyli-xunuk", "foydali-foydasiz" kabi qarama-qarshiliklar mezon vazifasini o'taydi. Shunga nisbatan M.V.Nikitin mezon qoliplarini ikki asosiy guruhga ajratadi: a) modal-haqiqatlik va b) qadriyatlilik guruhlari. Ulardan birinchi guruhdagilari tafakkurning kognitiv-ratsional hududiga tegishli bo'lsa, ikkinchi guruhdagilari ega shaxsning kognitiv-emotsional faoliyatiga taaluqlidir [Никитин 2004, 73].

Ma'lumki, norma yoki me'yorlar tizimi tilshunoslar tomonidan birmuncha batafsil o'rganilgan [Parsons 1994; Begmatov, Mamatov 1999; Карасик 2019; Джусупов 2021]. Horijiy tadqiqotchilar baho me'yorini aks ettiruvchi nutqiy tuzilmalarni "preskriptiv tuzilmalar" (phrases of prescription) deb ataydilar [Hare 1992, 221]. Ushbu nutqiy tuzilmalar vositasida, shaxsning nutqiy xatti-harakati nazorat qilinadi va ular maslahat, ijozat, ta'qiq mazmunidagi pragmatik vazifalarni bajaradi. Bunda me'yor baho mexanizmlarini harakatga tushiradigan manbaga aylanadi.

Me'yor doirasidan o'rin olmaydigan voqelik hodisalari nome'yoriy, noodatiylik bahosini oladi. Shu sabab, me'yor tushunchasi odatda ijobiy bahoga nisbatan tavsiflanadi, chunki "yaxshi" baholashning asosiy mezonidir. Ijobiy baho jarayonning me'yor doirasida kechayotganiga ishora qilsa, salbiy baho esa undan chekinishdan xabar beradi [Апутьюнова 1987, 3].

Me'yor, shuningdek, doimiy va o'zgaruvchan ko'rsatkichlarga ega [Кронгауз 2004, 141]. Uning mezonlari kontekst, so'zlovchining shaxsiy tajribasi bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Demak, qiyos va inkorga asoslangan baho me'yorga bo'ysunadi.

Bahoga binarlik, ya'ni ikkilangan, qo'shqavatlilik xususiyati xos ekanligi qadimdan qayd etib kelinmoqda. Antik faylasuflar asarlarining bilimdoni Abu Nasr Farobiy insonni yaxshi, xayrli ishlar qilishga, go'zal xulq-atvor sohibi bo'lishga da'vat etuvchi ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni fazilatlar deb ataydi. Insonni xunuk xulq-atvor, xatti-harakatlarga da'vat etuvchi ishtiyoqlar esa razolat deyiladi [Abu Nasr Farobiy 1993, 165]. Tilshunoslik fanida ham "yaxshi" va "yomon" ziddiyati ijobiy va salbiy ma'nolar ko'rsatkichi sifatida qarab kelinmoqda. Tadqiqotchilar ijobiy va salbiy bahoni turlicha nomlaydilar. Jumladan, [Банина 2001, 3] meliorativ va peyorativ baho terminlarini qo'llasa, Z.To'xtaxodjayeva uchun "bahoning ijobiy va salbiy ko'rsatkichlari" tavsifi ma'qulroq ko'rinadi [Z.To'xtaxodjayeva 1982, 16].

Yuqorida nomlari qayd etilgan tadqiqotchilar, shuningdek, bahoning emotsionallik, kinoyamuzlik, situativlik, intensivlik va kommunikativlik belgilarini ajratadilar. Bunda bahoning ijobiydan salbiyga qarab harakatlanishi [Илюшина 2001, 31], kontekst bilan bog'liqligi [Z.To'xtaxodjayeva 1982, 31], ma'no ifodasidagi darajalanishi [Банина 2001, 22] kabi xislatlari inobatga olinadi.

Ajratilgan kategorial belgilar baho strukturasida turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lsalar-da, lekin ularning o'zaro aloqasini inobatga olish baholash mexanizmlarini harakatga keltiruvchi vositalar tabiatini yoritishda muhimdir. Zero, olam lisoniy manzarasining baho olayotgan qismining tadqiqi mukammal jarayon

bo'lib, uni amalga oshirish uchun baho kategoriyasining turli jihatlarini majmuaviy, o'zaro bog'liqlikda o'rganish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Alexander R. *Fixed expressions in English: a linguistic, psycholinguistic, sociolinguistic and didactic study* // *Anglistik und Englischunterricht*, 1988. – vol. 6. – P. 171-188
- [2]. Austin J. *How to do things with words*. – Oxford: OUP, 1962. – 167 p. Hare R. *Description and Evolution* // *The Language of Morals*. – Oxford: OUP, 1992. – 450 p.
- [3]. Parsons T. *Events in the Semantics of English: a study of subatomic semantics*. – Cambridge: MIT Press, 1994. – 334 p.
- [4]. Russel B. *Mysticism and Logic and other essays*. – Melbourne: Pengiun Books, 1953. – 220 p.
- [5]. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. – Т., 1993.
- [6]. Аристотель. *Этика. Политика. Риторика. Поэтика. Категории*. – Минск: Литература, 1998. – 1391.
- [7]. Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки (в лингвистических исследованиях) // *Вопросы языкознания*, 1985. № 3. – С. 13-24.
- [8]. Банина Е.Н. *Оценочный компонент значения в семантике метафоры*. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2001. – 17 с.
- [9]. Бахтин М.М. *Эстетика словесного творчества*. – М.: 1986. – 444 с.
- [10]. Бегматов Э., Маматов А. *Адабий норма назарияси*. – Т.: Фан, 1999. – 140 б.
- [11]. Вольф Е.М. *Функциональная семантика оценки*. – М.: URSS, 2002. – 280 с.
- [12]. Гранин Ю.Д. О гносеологическом содержании понятия “оценка” // *Вопросы философии*, 1987. № 6. – С. 59-72.
- [13]. Джусупов Н.М. *Языковая девиация: конструктивный характер, лингвокреативный потенциал, ключевые отличительные особенности* // *Актуальные проблемы современной лингвистики*. – Т.: 2021. – С. 78-85.
- [14]. Ильюшин Е.С. *Лексические средства положительной оценки человеческих качеств*. Автореф. дисс.... кан. филол.наук. – М.: 2001. – 21 с.
- [15]. Карасик И.В. *Языковая спираль: ценности, мотивы, знаки*. – М.: Гнозис, 2019. – 424 с.
- [16]. Кронгауз М.А. *Норма: семантические и прагматические аспекты* // *Сокровенные смыслы. Слово. Текст. Культура*. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 380 с.
- [17]. Никитин В.М. *Основы когнитивной семантики*. – СПб.: Изд-во ЛГГУ, 2004. – 210 с.
- [18]. Радбиль Т.Б. *Язык и мир: парадоксы и взаимоотношения*. – М.: Издательский дом ЯСК, 2017. – 592 с.
- [19]. Тоҳир Малик. *Ёзувчининг бахти ва бахтсизлиги*. – Т.: Шарқ – зиё – заковат, 2017. – 384 б.
- [20]. Тўхтаходжаева З.Т. *Выражение категорий квантификации и оценки в словообразовательной системе современного английского языка (на*

материале производных прилагательных). Автореф.дисс.... канд. филол. наук. – М.: 1982. – 26 с.

[21]. Чекулай И.В. *Ценность и оценка в категориальной структуре современного английского языка. Дисс... докт. филол.наук. – Белгород, 2006. – 473 с.*